

# **Toshkent - Madrid ilk aviaqatnovi**

**2025 7 Aprel**

Bugun, 2025-yil 7-aprel kuni Uzbekistan Airways Toshkent - Madrid yangi xalqaro yo'nalishi bo'yicha birinchi parvozni muvaffaqiyatli amalga oshirdi.





O'zbekiston poytaxtidan Ispaniya poytaxtiga to'g'ridan-to'g'ri parvoz aviatashuvchining parvozlar geografiyasini kengaytirish va Markaziy Osiyo va Yevropa o'rtafidagi transport aloqalarini mustahkamlashda muhim qadam bo'ldi. Yo'nalishning ochilishi ikki mamlakat aviatsiya ma'muriyatining yo'nalishga bo'lган qiziqishi va qo'llab-quvvatlashi tufayli amalga oshirildi.



Toshkent - Madrid - Toshkent yo'nalishi bo'yicha parvozlar haftada bir marta dushanba kunlari amalga oshiriladi. Bu nafaqat mamlakatlar o'rtasida sayyohlik va madaniy almashinuvni rivojlantirish, balki ishbilarmonlik hamkorligi va tranzit tashuvlari uchun yangi imkoniyatlar ochadi.



Aviachiptalarni [www.uzairways.com](http://www.uzairways.com) saytida, ilovada, Uzbekistan Airways Sales filialida yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qiling.